

TALABALAR KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA EVRISTIK METOD VA VOSITALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Tursunbekov Xurshidbek Raxmatjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti 2-kurs magistranti.

xurshidbektursunbekov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada evristik ta‘lim texnologiyalari asosida talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishda qo‘llaniladigan asosiy metod va vositalar tahlil qilingan. Evristik ta‘limda talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi keys-stadi, evristik savollar tizimi, qisman izlanish hamda mini-loyiha metodlarining didaktik mohiyati va o‘zaro bog‘liqligini ochib berilgan. Shuningdek, mazkur metodlardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari va talabaning kognitiv faoliyatini reproduktiv darajadan ijodiy darajaga ko‘tarish imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *evristik ta‘lim, kognitiv faoliyat, o‘qitish metodi, keys-stadi, evristik savollar, qisman izlanish, mini-loyiha, mustaqil fikrlash, ijodiy faollik, oliy ta‘lim.*

Kirish

Zamonaviy oliy ta‘lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biri — talabalarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdir. Axborotni tayyor holda uzatishga asoslangan an‘anaviy ta‘limdan farqli ravishda, talabaning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi evristik ta‘lim texnologiyalari bu vazifani hal etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Evristik yondashuv talabani bilim iste‘molchisi emas, balki bilimni mustaqil kashf etuvchi subyekt sifatida ko‘rishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishda qo‘llaniladigan evristik metod va vositalarning didaktik mohiyati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Evristik ta‘lim texnologiyalarining talabalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan metod va vositalarning to‘g‘ri tanlanishi hamda ularning didaktik jihatdan asoslangan tarzda tashkil etilishiga bog‘liqdir. Shu sababli evristik yondashuv amaliyotda turli metodlar majmuasi orqali ro‘yobga chiqariladi, ularning har biri o‘ziga xos didaktik vazifani bajaradi va talabaning bilish faoliyatining ma‘lum bir tomonini faollashtiradi.

Evristik ta‘lim metodlarining mohiyatini ochishdan oldin «metod» tushunchasiga qisqacha to‘xtalish o‘rinli. «Metod» so‘zi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo‘lib (methodos), «izlanish yo‘li», «bilim sari yo‘l» degan ma‘nolarni anglatadi. Pedagogika fanida o‘qitish

metodi tushunchasi turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, mualliflarning aksariyati uni o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyati sifatida ta’riflaydilar.

O‘zbekiston pedagogika fanining yetakchi vakillaridan biri B. T. Jo‘rayev ta’kidlashicha, o‘qitish metodi — bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq faoliyatining tartibli usuli bo‘lib, o‘quv jarayonining mazmuni, vositalari va shakllari bilan uzviy aloqada amalga oshiriladi. Umumlashtirilgan holda, o‘qitish metodi deganda o‘qituvchi va talabanning ta’limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarga erishishga qaratilgan, ma’lum didaktik tizim asosida tashkil etilgan birgalikdagi faoliyat usulini tushunish mumkin. Quyida evristik ta’limda talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi to‘rtta asosiy metod ko‘rib chiqiladi.

Natijalar

Keys-stadi (vaziyatli tahlil) metodi oliy ta’lim amaliyotida keng tarqalgan interaktiv metodlardan biridir. S. I. Pozdeyeva va T. V. Kuznetsova keys-stadini real yoki realga yaqin amaliy vaziyatni tahlil qilish orqali talabanning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi faol o‘qitish metodi sifatida ta’riflaydilar. O‘zbek olimlari J. G‘. Yo‘ldoshev va S. A. Usmonov esa uni talabada «muammoni ko‘rish», uni mustaqil tahlil qilish va asoslangan yechim taklif etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik texnologiya deb baholaydilar.

Keys-stadining didaktik mohiyati uning talabaga tayyor bilim taqdim etmasligida namoyon bo‘ladi. Aksincha, talabaga muammoli vaziyat beriladi va undan vaziyatning asosiy shartlari, cheklovlari hamda sabab-oqibat bog‘lanishlarini mustaqil ravishda aniqlash talab qilinadi. Bu jarayon talabanning tahliliy fikrlash, muammoni anglash va vaziyatni baholash kabi kognitiv operatsiyalarini bevosita faollashtiradi. Metodning evristik xarakteri shundaki, vaziyatda yagona to‘g‘ri yechim ko‘rsatilmaydi — talaba o‘z mulohazasi, dalillari va asoslari bilan o‘z yechimini taklif etadi.

Evristik savollar tizimi metodi qadimgi Sokratik suhbat an‘analaridan kelib chiqqan bo‘lib, zamonaviy didaktikada A. V. Xutorskoy va V. I. Andreyev tomonidan tizimlashtirilgan. Xutorskoy evristik savollarni o‘quvchining yangi bilim va ma’noni mustaqil kashf etishiga yo‘naltirilgan, izlanish faoliyatini boshqaruvchi didaktik vosita sifatida ta’riflaydi. Andreyev esa ularni ijodiy vazifani hal qilish strategiyasini shakllantiruvchi, tafakkurni faollashtiruvchi vosita deb hisoblaydi.

Evristik savollarning o‘ziga xosligi shundaki, ular oddiy reproduktiv savollardan tubdan farq qiladi. Reproductiv savol «nima?» va «qachon?» tipida bo‘lib, xotiraga murojaat qiladi. Evristik savol esa «nega?», «qanday qilib?», «qaysi dalil asosida?», «agar... bo‘lsa, nima bo‘lardi?» tipida bo‘lib, tafakkurni faollashtiradi va mantiqiy operatsiyalarni — tahlil, sintez, dalillash, taqqoslash — ishga tushiradi. Metodning didaktik samaradorligi savollarning ketma-ketligi va mantiqiy progressiyasi bilan belgilanadi: muammoni aniqlashtiruvchi

savollardan sabablarni ochuvchi, gipoteza qurishga undovchi va muqobil yechimlarni taqqoslovchi savollarga izchil o‘tish talabani kognitiv faoliyatini ijodiy darajaga ko‘taradi.

Qisman izlanish (muammoli izlanish) metodi ning nazariy asoslari M. I. Maxmutovning muammoli ta‘lim konsepsiyasida ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, ushbu metod talabani tayyor xulosalar oluvchi pozitsiyadan tadqiqotchi pozitsiyasiga o‘tkazuvchi didaktik vositadir. N. Saidahmedov va A. Ochilov esa qisman izlanish metodi o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli saqlangan holda talabani mustaqilligini bosqichma-bosqich oshirishga xizmat qilishini ta‘kidlaydilar.

Qisman izlanish metodining didaktik mohiyati shundaki, o‘qituvchi talabaga tayyor yechim taqdim etmaydi, balki uni mustaqil izlanish yo‘liga yo‘naltiradi. Bu jarayonda talaba o‘z taxminlarini ilgari surishni, ularni dalillar bilan tekshirishni, manbalar bilan ishlashni va xulosalarini asoslab berishni o‘rganadi. Metodning kognitiv faoliyatga ta‘siri ko‘p qirralidir: u talabani tanqidiy tafakkurini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini, axborotni baholash va saralash ko‘nikmalarini hamda dalillash madaniyatini shakllantiradi.

Mini-loyiha metodi loyiha metodining cheklangan vaqt va resurs sharoitida qo‘llaniladigan qisqa muddatli shaklidir. Loyiha metodining nazariy asoslari J. Dyui va W. Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan. Ye. S. Polat va M. Yu. Buxarkina loyiha metodini nazariy bilimlarni amaliy mahsulot orqali namoyon etadigan integrativ didaktik tizim sifatida ta‘riflaydilar; O‘. Q. Tolipov va M. Usmonboyeva esa uni talabani kasbiy kompetensiyalarini real amaliy faoliyat orqali shakllantiruvchi pedagogik texnologiya deb baholaydilar.

Mini-loyiha talabadan yechim maqsadini belgilash, amalga oshirish bosqichlarini izchil ko‘rsatish, kutiladigan natijani asoslash va ehtimoliy qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyatlarini talab etadi. Mazkur metod kognitiv faoliyatning eng yuqori — ijodiy darajasiga to‘g‘ri keladi, chunki u talabani «bilim iste‘molchisi» pozitsiyasidan «bilim yaratuvchi subyekt» pozitsiyasiga olib chiqadi.

Muhokama

Yuqorida tahlil qilingan to‘rt metod o‘zaro mantiqiy bog‘liq didaktik tizim sifatida amal qiladi. Keys-stadi talabani muammoli vaziyat bilan to‘qnashtiradi va uning tafakkurini faollashtiradi; evristik savollar tizimi izlanish yo‘nalishini belgilab beradi va kognitiv operatsiyalarni boshqaradi; qisman izlanish metodi mustaqil tadqiqot faoliyatini tashkil etadi; mini-loyiha esa olingan natijalarni umumlashdirib, ularni asoslangan amaliy yechim ko‘rinishida shakllantiradi.

Evristik metodlarni qo‘llash amaliyotda uch bosqichli algoritmgaga asoslanadi. Birinchi — motivatsion-muammolashtirish bosqichida talabani kognitiv qiziqishi faollashtiriladi va u muammoli vaziyatga jalb etiladi; bu bosqichda asosan keys-stadi metodi qo‘llaniladi. Ikkinchi

— evristik izlanish bosqichida talaba gipoteza ilgari suradi, evristik savollar uning fikrlash yo‘nalishini boshqaradi, qisman izlanish metodi orqali esa axborotni qidiradi va muqobil yechimlarni taqqoslaydi. Uchinchi — xulosalash va refleksiya bosqichida mini-loyiha metodi yordamida natijalar umumlashtirilib, talaba o‘z bilish faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Evristik metodlarning izchil qo‘llanilishi natijasida talabaning kognitiv faoliyati beshta asosiy yo‘nalishda rivojlanadi: birinchidan, bilishga bo‘lgan ichki qiziqish kuchayadi; ikkinchidan, mustaqil fikrlash, tahlil-sintez va dalillash madaniyati shakllanadi; uchinchidan, manbalar bilan ishlash va axborotni saralash kabi izlanish ko‘nikmalari takomillashadi; to‘rtinchidan, muammoni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilishni o‘z ichiga olgan muammo yechish kompetensiyasi shakllanadi; beshinchidan, o‘z bilish faoliyatini baholashga qaratilgan refleksiv ko‘nikmalar rivojlanadi.

Xulosa

O‘rganilgan nazariy bilimlar shuni ko‘rsatadiki, keys-stadi, evristik savollar tizimi, qisman izlanish va mini-loyiha metodlari yagona didaktik tizim sifatida qo‘llanilganda eng yuqori samara beradi. Ularning izchil va o‘zaro bog‘liq tarzda tatbiq etilishi talabani passiv tinglovchidan faol izlanuvchiga aylantiradi. Bir so‘z bilan aytganda, evristik ta’lim metodlari talabaning kognitiv faoliyatini kompleks rivojlantirib, uni o‘quv jarayonida mustaqil va ijodiy fikrlovchi subyekt sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, mazkur metodlarning didaktik samarasi tasodifiy emas — u maxsus pedagogik shart-sharoitlarning ta’minlanishiga bog‘liq bo‘lib, ushbu masala alohida tadqiqotni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jurayev B. T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Fan va ta’lim, 2022. – B. 47.
2. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – B. 124.
3. Saidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va zamonaviy loyihasi. – Toshkent: RTM, 2020. – B. 94.
4. Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zR FA "Fan" nashriyoti, 2019. – B. 178. (qayta nashr)
5. Поздеева С. И., Кузнецова Т. В. Кейс-стади как метод обучения и развития профессиональных компетенций студентов вуза // Высшее образование в России. – 2021. – Т. 30, № 8–9. – С. 137–146.

6. Андреев В. И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного человека: Монография. – Казань: Центр инновационных технологий, 2017. – С. 184–187.

7. Юдин Э. Г. Системный подход и принцип деятельности: Методологические проблемы современной науки. – М.: ЛЕНАНД, 2018. – С. 87.